

CHILDREN'S LITERATURE IN PRESCHOOL EDUCATION

Kiyikboyev Foziljon Qosimovich

Andijan State University Methods of Preschool Education

Associate Professor, Candidate of Philological Sciences

ANNOTATION

This article provides feedback on children's literature in preschool education.

Keywords: literature, art, talent, poems, songs, upbringing, attention to education - attention to the future, preschool organization, children's literature.

INTRODUCTION

O'zbekiston xalqi ko'pni ko'rgan, elkasida tarix sinovlirini ko'targan, o'ziga ham, o'zgalarga ham tinchlik-osoyishtalik, farovon hayotni tilab kelgan, shu niyatda insoniyat sivilizatsiyasi rivojiga munosib hissa qo'shgan xalq. Vatanimiz buyuk olimu-fuzalolar va mutafakkirlarga beshik bo'lgan zamin.

Imom Buxoriy, Burhoniddin Marg'inoniy, Iso Hakim at-Termiziylar, Maxmud az-Zamaxshariy, Muhammad Qaffol SHoshiy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy singari buyuk mutafakkir bobolarimiz jahon sivilizatsiyasi rivojiga salmoqli hissa qo'shgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev "YOsh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda..." "Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi", deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi " degan edilar.

Ta'limga e'tibor – kelajakka e'tibor. Har qanday mamlakatning salohiyati yoshlarning ongliligi, zamonaviy bilimlarni o'zlashtirishi, bir so'z bilan aytganda intellektual salohiyatning yuqoriligi bilan belgilanadi.

Bugun fan, texnika yutuqlari davlatning jug'rofiy-strategik salohiyatiga aylanib ulgurgan va globallashuvning butun dunyonи qamrab olayotgan bir paytda inson geografiyasining holati eng muhim omil ekanligini ko'rsatmoqda. Bir tomondan zamonaviy yuksak taraqqiyot ishlab chiqarishning jadallashtirish va bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish, ikkinchi tomonidan, turli yot g'oya va mafkuralar tahdidiga qarshi kuchli mafkuraviy immunitetni tashkil qilish, milliy mentalitetimizning hayotbaxsh imkoniyatlarini ifoda etish yoshlarning komil va etuk malakali mutaxassis bo'lib etishishlari tufayli to'la ro'yobga chiqadi.

Ta'lim va tarbiya tizimining nazorat asosi xalq, millat o'z bilimlarini yillar davomida yuksaltirib, boyitib boradi. Chunki bilim olish xadisda qayd etilganidek "beshikdan to qabrgacha ilm izlang" kabi purmano fikrlar tizimiga qo'yilgan talablarni asosini tashkil etadi. Zamonaviy yosh avlod ongiga bu sifatlarga xos fazilatlarni singdirish, pedagogik va psixologik, murabbiyyilik jixatidan murakkab, ko'p qirrali va uzoq muddat talab qiluvchi, shu bilan birga nihoyatda dolzarb muammolardan biridir.

Bu muammolarni muvaffaqiyatli hal etish ta'lim va tarbiya beruvchiga ham, tarbiya oluvchiga ham alohida-alohida ma'suliyat yuklatadi. Ta'lim-tarbiya jarayoni haddan tashqari murakkab soha. Talabaning butun umri davomida o'zida mujassam etgan xulqatvor, odob-axloqi, kasbi-koriga munosabati, milliy an'analariga sadoqati va ma'rifatga hurmati, iymoni va toza vijdonligi unga tarbiyachi bo'lismi imkonini beradi.

Adabiyot bolalarni aqlan, axloqan va estetik tarbiyalashning qudratli, ta'sirchan qurolidir, u bola nutqining rivojlanishi va boyishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bolalar badiiy asarlar qahramonlariga qayg'urishni o'rganganlaridan so'ng ular yaqinlari va atrofdagi odamlar kayfiyatini his eta boshlaydilar. Ularda insonparvarlik his-tuyg'ulari – birovning dardiga sherik bo'lismi, yaxshilik qilish, adolatsizlikka nisbatan qarshilik ko'rsatish qobiliyati paydo bo'la boshlaydi. Bu halollik, haqiqiy fuqarolik hislari tarbiyalanadigan poydevordir.

Ertaklar olamiga sayohat maktabgacha yoshdagagi bolalar tasavvurini, ularning hayvonot olamini, fantaziyasini rivojlantiradi. Eng yaxshi adabiy namunalar asosida insonparvarlik ruhida tarbiyalangan bolalar o'z hikoyalari va ertaklarida ojizlar va zaiflarni himoya qilish, yomonlarni jazolash orqali o'zlarining adolatparvarligini namoyon qiladilar.

Maktabgacha ta'lim yoshdagagi bolalarning badiiy asarlarni qabul qilishining asosi – bu ularga nisbatan emotsiyonal javob, turli xil ohanglarni ilg'ab olish, ularga munosabat bildirish, imkoniyat darajasidagi adabiy asarlar qahramonlarini tanib olish va ular haqida qayg'urishdir.

Maktabgacha yoshdagagi bolalar uchun kichik shakldagi she'riyat, ya'ni: folklor va mualliflik she'riyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bolalarga bosh qahramonlari bolalar, hayvonlar bo'lgan, o'yinli va maishiy vaziyatlar bayon qilingan asarlar juda qiziqarlidir.

Bola kattalar bilan birgalikda matallar va sanoq she'rlar syujetlari asosida ishtiyoq bilan o'yinlar tashkil qiladi, u tovush taqlidiga va folklor yo'nalishidagi bir maromdag'i takrorlashlarga qulqoq tutadi hamda ularga taqlid qiladi. Bola adabiy asarlarda bayon qilingan voqealarni juda jiddiy qabul qiladi. O'ziga yoqib qolgan ertakni bir necha marta eshitishga ham tayyor. Uning qahramonlarini illyustratsiyalar va o'yinchoqlarda xursand bo'lib tanib oladi, har gal ertakning baxtli yakunini berilib kutgani holda syujet harakatlarining odatdag'i ketma-ketligini sinchkovlik bilan kuzatib boradi.

Kichkintoylarga mo'ljalangan badiiy asarlar soni unchalik ko'p emas. Shuning uchun ular ko'p martalab takror jaranglashi, bolaning kundalik hayotiga kirib borishi va unda badiiy asarni his qilishning birlamchi asoslarini rivojlantirishi lozim.

Ilk yoshdagagi bolalarga o'qib beriladigan asarlar doirasini asosan o'zbek folklori asarlari tashkil qiladi. Ular eng yaxshi tarzda ilk yoshdagagi bolalar ehtiyojlariga mos keladi, chunki, u so'z, ohang, musiqa va harakatni o'zida jamlagandir. Bolalar hayvonlar haqidagi xalq ertaklari bilan tanishadilar: «Sholg'om», «Bo'g'irsoq», «Uycha», «Chigor tovuq» va boshq.

Bolalar bog'chasida tarbiyachi bolalarda adabiyotga mehr uyg'otishi uchun bolaga so'z san'ati olamini ochish, kitobga qiziqish va mehrni, uni tinglash va tushunishni, xayoliy voqealarga emotsiyonal munosabat bildirishni, qahramonlar haqida qayg'urish va «ularga yordamlashish» hissini tarbiyalash, ya'ni bolalarni badiiy rivojlantirish, ularni bo'lajak o'quvchilar sifatida

shakllantirish; Hikoyani tinglash va tengdoshlari bilan birlgilikda o'qish qobiliyatini shakllantirishi lozim.

Shuningdek tarbiyachi yana bir qancha muhim vazifalarni bajarishi lozim.

- bolalarga sanoq she'r matniga mos keluvchi o'yin harakatlarini bajarish;
- bolalarda xalq asarlari, she'rlar, qo'shiqlar ohangdorligi va musiqiyligiga nisbatan emotsiyal munosabat bildirishni tarbiyalash;
- bolalarga adabiy asarlar ko'p martalab o'qilganida va hikoya qilinganida ularning qahramonlarini tanib olishda yordamlashish;

-bolaning she'rlar va ertaklardan ayrim so'zlar hamda ifodalarni takrorlashga rag'batlantirish;

-illyustratsiyalarni ko'zdan kechirishni, ulardan adabiy asarlar qahramonlarini tanib olishni va illyustratsiya mazmuni bo'yicha oddiy savollarga javob berishni o'rgatish

-bolalarga dastlab ko'rgazmali asosda so'ngra esa ko'rgazmasiz taqdim qilinayotgan qisqa she'rlar, sanoq she'rlar, ertaklardagi harakatlar rivojini kuzatib borishni o'rgatish;

- bolani ilk yoshdagagi bolalar uchun maxsus chop etilgan kitoblardan mustaqil ravishda foydalanishga undash.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish bolalarda adabiy asarlarni estetik qabul qilish qobiliyati va mahoratini tarbiyalash, ularda badiiy-nutqiy faoliyatni rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir.

Har xil adabiy janrlar turlicha usulda yetkazishni talab qiladi.Maktabgacha yoshdagagi bolalarga ertakni kitobdan o'qib emas, balki uni aytib bergen ma'qul: bu hissiy ta'sirni kuchaytiradi, bu esa ertakning asosiy mazmunini tushunishga yordam beradi. Katta yoshli odam kitobga emas, bolalarga qaraganida u xuddi har bir bola bilan suhbatlashgandek bo'ladi va shu bilan monologik nutqni eshitish hamda tushunishdek muhim qobiliyatni tarbiyalaydi. Agarda ertak mazmuni unchalik katta bo'lmasa, uni ikki-uch marta hikoya qilish yoki eng yorqin joylarini takrorlash mumkin. Uni aytib bo'lgandan so'ng bolalarga shunday sharoitni vujudga keltirish tavsiya qilinadiki, toki ular eng qiziqarli jihatlarni esga olish va ularning ertakdagi so'zlar bilan takrorlashga majbur bo'lsin.

Pedagog vaziyat yordamida bolalar bilan xalq ertaklari qahramonlarining qo'shiqlarini, qahramonlar ismlarini takrorlash, obrazli so'zlarni bolalar ongida mustahkamlashni amalga oshiradi, va ular buni o'z nutqlarida qo'llay boshlaydilar.

Pedagog bolalarning eng qiziq fikrlarini, ularning shaxsiy tajribasiga oid hikoyalarini, bolalar tomonidan o'ylab topilgan she'rlar va ertaklarni to'plashi lozim. Ushbu materiallar asosida bolalarning o'zлari tomonidan kitob yaratish ishlarini uyushtirish zarur. Bu bolalar tomonidan to'qilgan ertaklar, shaxsiy tajribaga oid hikoyalar, qo'shiqlar, sanoq she'rlarning bolalar rasmlari bilan bezatilgan to'plami, qo'lyozma jurnali va komikslari bo'lishi mumkin. Guruhda o'qib chiqilgan, bolalar suratlari, variativ syuwyetlar, improvizatsiyalar va to'qib, oxiriga yetkazishdan iborat bo'lgan u yoki bu adabiy asarlar ham aynan shunday tarzda yaratilishi mumkin.

Mazmuni har bir bolaga tushunarli va yaqin bo'lgan ertak hamda she'rlar o'qib bo'linganidan so'ng bolalarga ularning shaxsiy hayotidagi ana shunday holatlarni eslatib o'tish mumkin. Bu savollarga javob berar ekan, bolalar o'z fikrlarini faqat bir-ikkita oddiy

gaplardan tuzadilar, lekin buning o'zi endi kelgusida ravon nutqni rivojlantirish uchun tayyorgarlikdir. Kichkintoylarga ko'p savol bermaslik lozim, odatda ularning asarni qanday tushunganliklarini, qaysi so'zlarni esda saqlab qolganliklarini va ushbu mazmun bolaning shaxsiy tajribasi bilan qay darajada bog'lanishini aniqlovchi ikki-uchta savol berish kifoya. Maktabgacha ta'lim tarbiyachining bolalarga o'zining qaysi adabiy asarlarni yoqtirishini ma'lum qilishi, o'zining badiiy ta'bi va aqliy faolligini namoyish qilishi ularni ijodiy rivojlantirishning eng muhim vositasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Karimov I. A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. // –Fidokorlgazetasi, 2002-yil 8-iyun.
2. Razzoqov. H va boshqalar . bek xalq og'zaki noetik ijodi. Toshkent. –O'qituvchil nashriyoti . 1980-yil. 124-167 -187- 209-betlar.
3. Jumaboyev. M O'zbek bolalar adabiyoti. Toshkent –O'zbekistonl nashriyoti. 2002-yil. 29-42-betlar
- 4.Hamidov N .Bolalar hayotida adabiyotning roli va ahamiyati.Toshkent.-Cho'lpon.2012-yil